

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI BUXORO DAVLAT  
UNIVERSITETINING PEDAGOGIKA INSTITUTI MAKTABGACHA  
TA‘LIM VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM NAZARIYASI VA  
METODIKASI KAFEDRALARI**

**“BOSHLANG‘ICH VA MAKTABGACHA TA‘LIM SIFATI VA  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI:  
INNOVATSIYA, RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XALQARO  
TAJRIBALAR”**

**RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIIY ANJUMANIMATERIALLARI**

**2022-yil, 13-14 may**

Ikkinchidan, ochiqlik matematik tafakkurni rivojlantirish uchun ijtimoiy-madaniy muhit va boshqa ijtimoiy institutlar, jamoat tashkilotlari, madaniy va dam olish muassasalari, mahalliy hokimiyat organlari bilan munosabatlarni mustahkamlaydi.

Uchinchidan, ochiq maktabgacha ta'lim muassasasi uchun ijtimoiy sheriklikni amalga oshirishning asosiy usuli-umumiy qarorlar qabul qilish, tomonlarning manfaatlarini muvofiqlashtirishga yordam beradigan muloqotdir. Bunday ijtimoiy muloqot maktabgacha ta'lim tizimi uchun uning sifati va samaradorligini oshirish uchun zarurdir. Bu maktabgacha ta'lim muassasasining yangi tashqi muhitini tashkil etishga yordam beradigan ijtimoiy muloqotdir.

To'rtinchidan, ochiq maktabgacha ta'lim muassasasi uchun ijtimoiy sheriklik jamiyatning zamonaviy talablariga, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga va ijtimoiy-madaniy vaziyatga o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tashkil etish va moslashishning samarali mexanizmi hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Акулова О.А., Солнцева О.В. Социализация.Игра. [Текст] / О.А.Акулова , О.В.Солнцева. С-Пб: ДЕТСТВО-ПРЕСС, 2012.
2. Запорожец А.В., Лисина М.И. Развитие общения у дошкольников. [Текст] / А.В.Запорожец , М.И. Лисина. Москва: Педагогика, 1974. 288с.
- 3.Стрелченко Г. Социальнойе развитие дошкольника. [Текст]/ Г.Стрелченко//Дошкольнойе образованийе (приложенийе). -2006.

### **МАКТАБДА ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМИ МАҚСАДИНИНГ ДОЛЗАРЪ МАСАЛАЛАРИВА МУАММОЛАРИ**

**Дилноза Гуломовна Назарова,**  
*БухДУ таянч докторанти*

Кўп йиллик дидактик-педагогик тажрибалардан маълумки, таълим мазмуни белгилашда, албатта, унинг мақсади йўналтирувчи асос ҳисобланади. Аввало, тўғри белгиланган таълим мақсади натижасида шахс, давлат ва жамият, фан, техника, технологиялар ҳамда ишлаб чиқаришни самарали ривожлантириш учун ижтимоий ресурс, имконият вужудга келади. Бу ўринда шахс, давлат ва жамият, фан, техника, технологиялар ҳамда ишлаб чиқариш муносабатлари ўзаро уйғунлашади: жамият, фан, техника, технологиялар, ишлаб чиқариш ўзининг истиқболдаги тараққиёти учун қандай мутахассис зарурлигини белгилайди; шахс эса фан, техника, технологиялар ҳамда ишлаб чиқаришнинг самарали ривожланишини таъминловчи асосий куч ҳисобланади. Шунинг учун ҳам давлат, жамият, фан, техника ҳамда ишлаб чиқариш илм-фан ва касб-хунар эгаларининг энг малакали вакилларига ҳар доим кучли эҳтиёж сезади. Мана шу эҳтиёж ижтимоий буюртманинг асосини ташкил этади. Шунинг учун ҳам *етук шахслар* жамият ҳаётида марказий ўринни эгаллайди. Мана шу зарурат мустақиллик даврида ўзбек педагогикасида “шахс тараққиётига йўналтирилган замонавий таълим” тушунчасини юзага келтирди.

Зеро шахс тараққиётига йўналтирилган замонавий таълим мазмуни амалиётга татбиқ этиш мақсадида ўқув жараёнига илғор технологияларни олиб кириш зарурати таълим мазмуни билан унинг мақсади орасида мутаносибликни таъминлашни тақозо қилади.

Юқорида таълим мақсади ва мазмуни орасидаги мутаносиблик кўпинча ўқув дастурлари тузувчилари ва дарслик муаллифлари томонидан ҳисобга олинмаётганини таъкидладик. Фикримизни далиллаш учун эътиборни умумий ўрта таълим мактабларининг 5-синфлари учун мўлжалланган “Она тили” ўқув дарслигига қаратамиз. Таъкидлаш жоизки, мазкур дарслик мустақиллик шарофати билан яратилган ҳозирги кунда умумтаълим мактабларининг V-IX синфлари учун “Она тили”дан янги типдаги – ижодий тафаккур соҳибини етиштириш мақсадли дастур асосида яратилган янги дарсликларнинг иккинчи авлодидан бири бўлиб, ундан республикамизнинг кўп минг сонли фарзандлари фойдаланмоқда. Дарсликдаги мавзуларнинг жойлашиши, оғзаки нутқни ривожлантиришга қаратилган машқлар миқдорининг анча юқорилиги, мавзуларни мустаҳкамлаш учун берилган савол ва топшириқларнинг кенг қамровлилиги, дарслик охирида тест намуналари, қисқача изоҳли луғат берилиши унинг кимматини ошириши табиий.

Мустақиллик шарофати билан она тили таълими назарияси асослари бихеовиоризмдан вербаллик ва онглилик (когнитивизм) психологик асос томон силжий бошлади [1]. Хусусан, Д.П.Озбелнинг “Педагогик психология. Когнитив ёндашув” (1968) асаридан сўнг таълимда рецептив усул [reception learning]дан кўра янги даврда кашфиёт усули [discovery learning] мувофиқ эканлиги ойдинлашди [2;3;4]. Бу усулда ўқувчига рецептив таълимда бўлганидек билим (қоида, қонуният, хулоса ва ҳукмлар) тайёр ҳолда берилиб, таълим олувчидан уни ўзлаштириш ва

такрорлаш талаб этилмайди; ўқув материали ҳамда топшириқлар силсиласи таълим олувчига шундай берилмадики, у ўзига зарур бўлган билимни ўқитувчи раҳбарлигида мустақил иш ва изланиш фаолияти билан кашф этсин, яратсин [5]. Бошқача қилиб айтганда, ўқувчи таълим жараёнининг (субъекти, ўқитувчи таълим олувчининг ўрганиш жараёнининг ташкилотчиси, бошқарувчиси мавкеида бўлади. Таълимга шундай асосда ёндашилгандагина у билимдон ижрочини эмас, мустақил ижодий тафаккур соҳиби ва тадбиркор шахсни етиштиришга хизмат қила олади. Янги мақсад таълимни янги асосларда қуришни талаб қилади. Зеро, мазкур талаб она тили таълими мазмуни ҳам, усул ва воситалари ҳам янада мукамаллаштишини тақозо этади.

Биз юқорида мисол тариқасида келтирган дарсликни танқид қилиш нуқтаи назаридан йирик эканлигимизни таъкидлаган ҳолда айтмоқчимизки, республикамизда янги мақсадни кўзлайдиган дарсликларни тузиш ва оммалаштириш тажрибаси йиғилмоқда. Шунинг учун она тили ўқув фанидан таълимнинг янги мазмуни, усули ва воситаларини она тили таълими мақсадига мувофиқлигини ҳар томонлама тадқиқ этиш, бу йўлдаги тажрибаларни умумлаштириш, бугун ўзбек тилини она тили сифатида ўқитиш тажрибалар хазинасида бўлган А.Ғуломов ва М.Асқарова, Ҳ.Неъматов, А.Ғуломов, Н.Маҳмудов, А.Нурмонов, А.Собиров, В.Қодиров ва З.Жўрабоевалар раҳбарлигида тузилиб, амалиётда қўлланилган биринчи ва иккинчи авлод, шунингдек, А.Ҳожиев, А.Нурмонов, Н.Аҳмедовлар томонидан синов учун чиқарилган “Она тили” дарсликлари ўқув материалларини, уларда мужассамланган таълим усули, ўқитувчи~ўқувчи муносабатларини ҳар томонлама ўрганиш, шунингдек, “борини авайлаб асраш ва йўғини яратиш йўли”дан оғишмай бориш учун дарсликларни синчиклаб текшириш олдимизда турган муҳим вазифалардандир. “Она тили” таълимнинг замонавий, давр талаблари билан уйғун мақсади аниқланди, уни воқелантиришнинг умумий йўллари белгилаб олинди, навбатдаги вазифа она тилидан мактабда ўтказиладиган ҳар бир дарсни, мустақил ва синфдан ташқари ишлар тизимини шу мақсадга бўйсундириш, умумий мақсад билан ҳар бир топшириқ мақсади орасида, такрор таъкидлаганимиздек, диалектик-гносеологик (дидактик) умумийлик~яккалик, моҳият~ҳодиса, имконият~воқелик, сабаб~оқибат муносабатларини таъминлашдан иборат. Бунга эришиш ўзбек тилини ўқитиш методикаси, мактаб она тили таълими олдида турган муҳим вазифалардан бири ҳисобланади.

Таълим мазмунини унинг мақсадига мувофиқ тарзда белгилаш учун ўқув предметлари мақсадларини чуқур таҳлил қилиш талаб этилади. Бунда таълим-тарбиянинг бирлиги мақсади устувор бўлиши муҳим.

Хуллас, мактаб она тили таълимнинг бугунги мақсади ўқувчиларда мантикий тафаккурини шакллантириш, уларнинг ақлий саводхонлигини ошириш ва ривожлантириш; ўз-ўзини англаш, бошқалар билан мулоқотда ўзини тута билиш, ўзгалар фикрини англаш, эркин фикр юритиш, иқтидори ва ўз фикрини дадил баён этишга ўргатиш каби компетенцияларни шакллантириш ва ривожлантириш талаб этар экан, албатта, она тили таълими мазмуни ҳам қоидабозликлардан воз кечиши ҳамда коммуникатив прагматикага хизмат қилувчи амалиётга ўтиши муҳим.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. **Ashurbaeva R.K.** Ways of effective Implementation of Integration. Middle European Scientific Bulletin. Volume 10, March 2021. ISSN 2694-9970. Pag.45-51. <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/308>

2. **Dilorom Nematovna Yuldasheva.** Problems of national language education at school. Volume 4 Issue 3 BSU 2020 (3) Published by 2030 Uzbekistan Research Online, 2020 <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol4/iss3/15/>

3. **Yuldasheva Dilorom Nigmatovna.** O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. –Buxoro: Durдона, 2021.–428 b. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119112>

4. **Dilorom Yo‘ldosheva.** Ona tili ta‘limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013 (2019). <http://library.ziyonet.uz/uz/book/66601>

5. **Юлдашева Дилором Нигматовна.** Кадрлар тайёрлаш миллий дастури талаблари асосида таълим мақсадини белгилашнинг дидактик асослари: педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.–Тошкент, 2007.–124 б.

6. **Амонов У. С.** Научный подход А. Фитрата к пословицам // Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.

7. **O.R.Avezov.** Mental Status and Behavioral Reactions in Emergency and Extreme Emergencies. American journal of social and humanitarian research 3 (No. 1), 546-550

8. **Adizova Nigora, Adizova Nodira.** Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari. Conferences.

NUTQINI O'XSHATISHLAR BILAN BOYITISH USULLARI .....	115
Raximova Gularo Ibragimovna. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI PEDAGOGIK JAMOASINING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MATEMATIK TAFAKKURINI RIVOJLANISHI BO'YICHA OILA BILAN O'ZARO HAMKORLIGI .....	117
Дилноза Фуломовна Назарова, МАКТАБДА ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМИ МАҚСАДИНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ ВА МУАММОЛАРИ.....	119
D.B.Axmedova, Murodova Saodat Uyg'un qizi, BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNING O'RNI .....	121
Subhonova Sabohat, BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI YOZUVGA O'RGATISHDA QO'LLANILADIGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR .....	122
Saidova Shahlo Tolibovna, TEACHING MATHEMATICS IN PRIMARY SCHOOLS USING OF INTERACTIVE METHODS.....	124
Avezov Sobid Safarovich, MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TOVUSH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATIV JARAYON LOYIHASI.....	125
Fattullayeva Mahzuna Maqsud qizi, O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAK O'QITISHNING NAZARIY VA METODIK ASOSLARI.....	127
B. B. Tulepbergenova, BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING TARIXIY ONGINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY SHAXSLARNING O'RNI.....	129
Kumush Temirova, BOSHLANG'ICH SINFLAR ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH .....	130
Qosimov Fayzullo Muhammedovich, Fayzullayeva Sarvinoz Nabi qizi. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING MATEMATIK SAVODXONLIGINI O'STIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI.....	133
Safarov Firuz Sulaymonovich, Rajabova Xurshidabonu, BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARI LUG'ATINI FAOLLASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI .....	135
Valijonova Zarina Xurshid qizi. BOLALARDA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING RIVOJLANISHIDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI.....	138
N. B. Xaitova, TABIIY FANLARDA ZAMONAVIY DARSLARNING AHAMIYATI.....	140
Ражабова Нодирабегим Комиловна, ТАЛАБАЛАРНИНГ ИЛМИЙ -ТАДҚИҚОТ ИШЛАРИДА ИШТИРОК ЭТИШЛАРИ УЧУН РАЎБАТЛАШТИРИШ ВА МУКОФОТЛАШ ТИЗИМИ.....	142
Ergashova Munisa Hoshim qizi, Rasulova Oydin Zoirjon qizi, MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR .....	144
Ro'ziqulova Shaxnoza Toxirovna, "YUZA O'LCHOV BIRLIKLARI" MAVZUSINI O'TISH USULLARI .....	145
Davranova Gulbahor Numondjonovna, Melisova Shaxrizoda Oybek qizi, MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVI.....	149
Yusupova Aziza Nodirjon qizi, MAKTABGACHA TARBIYA YOSHDAGI BOLALARNING INTELEKTUAL SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH .....	151
Husenova Aziza Sharipovna, ONA TILI VA O'QISH DARSLARINI INTEGRATSIYALASHDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHI FAOLIYATI MODELLARI.....	153
Husenova Aziza Sharipovna, Usmonqulova Sohiba Mirzohid qizi, BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VOSITALARI .....	155
Ro'ziyeva Sadoqat Hasanovna, M. Bozorova, MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TEATRLASHTIRILGAN MASHG'ULOTLARGA INNOVATSION YONDASHUV .....	157
Tosheva Nurzoda Toshtemirovna, M.Sh. Mustafojeva, TA'LIMDA O'QUVCHILARNING YOSH VA INDIVIDUAL XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	159
Boymurodova Gulzoda Toshtemirovna, N. Z. Qodirova, MAKTABGACHA TA'LIMDA QO'LLANILADIGAN O'YINLARNING PEDAGOGIK AHAMIYATI.....	161
Sidiqova Yulduz Sobirovna, KICHIK MAKTAB YOSHDAGI O'QUVCHILAR BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	164
Davranova Gulbahor Numondjonovna, BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIGA RUS TILINI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING O'RNI.....	165
Zohidova Sanoat Raxmonovna, MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IJTIMOY MOSLASHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	